




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shıyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushılyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, “Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, “Go'ro'g'li” turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning “Murdalar gapirmaydilar” qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

BUXORO SHAHAR O'ZBEK-TOJIK SHEVALARINI O'RGANILISHI STUDYING THE UZBEKISTAN-TAJIK DIALECTS OF BUKHARA

Sabrina MUBINOVA,
ToshDO'TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PYJY9650

Annotation. *This article explains the “bilingualism” of the city of Bukhara, its surrounding districts and villages based on dialectal lexemes. The harmony of the Uzbek and Tajik languages is explained based on examples.*

Key words: *dialect, Uzbek language, Tajik language, population representatives, village, area, Bukhara city, G'ijduvan district, group*

O'zbek shevalarining amaldagi klassifikatsiyalariga ko'ra, Buxoro dialekti (o'rta) o'zbek shevalari guruhiga, yoki qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining Qarshi guruhiga mansubdir.

Buxoro dialekti umumiy fonetik belgi-xususiyatiga ko'ra, o-lovchi va y-lovchi hisoblanadi. Buxoro shevasi ikkita tilda tojik va o'zbek tilida so'zlovchi hamda bir tilda o'zbek tilida so'zlovchi mahalliy aholining nutqini ifoda etadi. Tojikcha -o'zbekcha ikki tililik Buxoro shahri, uning atrofidagi qishloqlar va ayrim tumanlarning qishloq aholisi o'rtasida mavjuddir. Ikki tilda va bir tilda so'zlashuvchi aholining nutqi, fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari bir-biridan sezilarli darajda farq qiladi. Shuning uchun ham biz o'zbekcha va tojikcha so'zlashuvchi aholi nutqini “ikki tilli” sheva deb, tojik tilini bilmaydigan, faqat o'zbekcha so'zlaydigan aholining nutqini shartli ravishda “bir tilli” sheva deb atadik. Shunday qilib, shahar tipidagi “ikki tilli” va “bir tilli” shevalar bir butun holda Buxoro dialektini tashkil etadi va dialektning tarkibiy qismlari sanaladi.

“Bir tilli” shevada so'zlovchi aholi, asosan, Buxoro viloyatining G'ijduvon, Vobkent, Romitan, Kogon, Navoiy va Konimex hududlarining ayrim qishloqlarida yashaydi. Bu yerdagi aholi vakillarining aksariyati o'zbek tilida so'zlashadi. (Lekin G'ijduvon tumanining Zarafshon Kolxoz mahallasida, Romitan tumaning Bog'i Turkon mahallalarida aholi vakillari tojik tilida so'zlashadi).

Bu sheva o'zining lingvistik xususiyatlari jihatidan “ikki tilli” sheva bilan o'zbek adabiy tili o'rtasidagi “oraliq” yoki “aralash” bir qatorni tashkil etadi. Bir tilli shevani professor E.D.Polivanov aytib o'tgan “maksimum eronlashgan” shevalar bilan tenglashtirish to'g'ri bo'lmaydi. O'zbek va tojik tillaridan iborat ikki tillilik

bir necha asrlardan buyon davom etib kelayotgan jarayondir. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, o'zbek va tojik tillarida so'zlashish, aholi o'rtasida bu ikki tilni yoyish bundan bir necha asrlar ilgari ya'ni XI-XII asrlarda shakllana boshlagan. O'zbek tili bilan birgalikda tojik tilining keng yoyilishi, muloqotda "ikki tilillik" ning paydo bo'lishiga asosiy va birlamchi sabab bo'lgan. Lekin shuni unutmaslik kerakki, Buxoro shevalarida aholi tomonidan ishlatilg kelinayotgan tojikcha leksemalar asl tojikcha leksema(so'z) lardan farq qiladi. Buxoro shevalarida tojik tilida so'zlashuvchi aholi leksemalarini biz Jondor tumanidagi aholi vakillari o'rtasida foydalaniladigan so'zlar misolida qiyosan o'rganib chiqishga harakat qilamiz:

1. Gavorabandon fors- tojikcha so'z bo'lib , "gavora"-beshik, "bandon"- belash, ya'ni beshikka belash degan ma'nolarni bildiradi. Tug'ilgan chaqaloqni beshikka belash, unga turli sovg'a-salomlar olib kelish bilan bog'liq marosim. Bu marosim yurtimizning ko'pgina hududlarida "Beshik to'yi" nomi bilan yuritiladi.

2. Chillagurezon fors-tojik tilida chilla (chihil) -qirq kun, gurezon - qochirmoq, ketkizmoq. Chaqaloq qirq kunlik bo'lganida chilla gurezon qilib, ya'ni chillani qochirib (o'tkazib), ya'ni chillani qochirib, chaqaloqni ko'chaga, aniqrog'i, ona buvisining uyiga olib chiqish marosimi.

3. Joyg'undoron- joy- ko'rpa -to'shak ma'nosida; g'undoron- fors-tojikchada "yig'moq" degan ma'noni bildiradi. Nikoh to'yidan keyin o'tkaziladigan marosim, 7 qavat ko'rpachalarni yig'ishtirish bilan bog'liq.

4. Sarshuyon- fors-tojik tilida sar- bosh, shuyon-quvilmoq so'zlaridan olingan. Nikoh to'yidan 7 yoki 10 kun o'tib kuyovning uyida bo'lib o'tadigan marosim.

5. Raxzanon- atama rax va zanon iborat bo'lib har ikkalasi ham fors-tojik tiliga mansub. Rax-ko'rpa-ko'rpachalarning ustma-ust terilgani, zanon- urmoq, termoq. To'yda ko'rpa-ko'chalarning ustma-ust terilishi bilan bog'liq marosim. Shunday qilib, Buxoro shahar tipidagi "ikki tilli "va "bir tilli "shevalar bir butun Buxoro dialektini tashkil etadi va dialektning tarkibiy qismlari sanaladi. Buxoro viloyati Vobkent tumanida yashovchi aholi vakillari o'rtasida ham tojik tilda so'zlashuvchi insonlarni va kelib chiqishi tojik tiliga borib taqaladigan so'zlarni uchratishimiz mumkin. Fikrimizga isbot tariqasida xaskash leksemasini olaylik.

Xaskash-ot turkumiga oid so'z bo'lib, "quruq o'simlik poyasi", "xashak" ma'nosini anglatadigan tojikcha xas otiga fe'l so'z turkumiga oid "tort" ma'nosini anglatadigan tojikcha "kash" felining hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, "xashak" xas- cho'p kabi narsalarni yig'ish, to'plash uchun ishlatiladigan uzun dastali, ko'p tishli asbob ma'nosini anglatadi.Vobkent tumanida xaskash

leksemasini tirna, tirma, grabil, tirmalog'ich, lovuch, xaskashak, hatkashak so'zlari ifodalaydi. Ushbu so'zlardan Vobkent tumanining barcha qishloqlarida ishlatiladi. Xalachning G'ijduvon bilan tutash hududlarida tirmalog'ich, Xayrabotchada xaskash deb ataladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Buxoro viloyatidagi tuman va qishloqlarda "ikki tililik" elementlari aholi vakillari orasida keng ildiz otib ulgurgan. Bugungi kunda ikki tilli shevani o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning barchasi dialektologiya sohasining rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Д., Содиқов Т., Носиров Ш., Турובה М. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 101.
2. Allaberdiyev A. Buxoro o'g'uz shevalari leksikasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2013, 6-son, 81-86 b.
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.
4. Мирзаев М. М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. Б.
5. Юсупов Қ. Ўзбек ва Тожиқ тилларининг ўзаро алоқаси // Учение записки IV Филологическая серия. – Фарғона, 1957.
6. Йўлдошев Т. Тожикистон ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1986. – 98.
7. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1962. – 372 б.
8. Гайбуллаев С. Қорақўл шевасининг таровати. – Тошкент: Ниҳол, 2017. – 196 б.

